

## KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

*Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrası*

*Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

***Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*talabasi **Qosimova Fazilat Sherzod qizi***

*Email: qosimovafazilat63@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Milliy statistika qo‘mitasi va Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida 2021–2025-yillar davomida kichik biznes subyektlarining soni, ularning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi baholab chiqilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, aylanmadan olinadigan solqi tizimi va maxsus iqtisodiy zonalardagi imtiyozlar biznesning rasmiy sektorga ko‘chishiga turtki bo‘lgan, biroq qator muammolar: norasmiy iqtisodiyotning sezilarli ulushi, moliya manbalariga cheklangan kirish samaradorlikni to‘sib qolmoqda. Maqolada mavjud cheklovlarni bartaraf etish yuzasidan xulosalar va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq imtiyozlari, kichik biznes, tadbirkorlik, aylanmadan olinadigan soliq, maxsus iqtisodiy zona, soliq siyosati, tadbirkor identifikatsiyasi, soliq yuki.

**Аннотация:** В данной статье анализируется экономическая эффективность налоговых льгот, направленных на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. На основе данных Национального комитета по статистике и Налогового комитета за период 2021–2025 годов оценены динамика числа субъектов малого бизнеса, их доля в валовом внутреннем продукте и в объёме промышленного производства. Исследование показывает, что система налога с оборота и льготы в рамках специальных экономических зон стимулировали переход бизнеса в формальный сектор, однако ряд факторов — значительная доля теневой экономики, ограниченный доступ к финансированию — продолжает сдерживать совокупный эффект. В статье сформулированы выводы и рекомендации по устранению существующих ограничений.

**Ключевые слова:** налоговые льготы, малый бизнес, предпринимательство, налог с оборота, специальная экономическая зона, налоговая политика, идентификация предпринимателя, налоговое бремя.

**Abstract:** This article examines the economic effectiveness of tax incentives aimed at developing small business and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. Drawing on data from the National Statistics Committee (stat.uz) and the Tax Committee (soliq.uz) covering the period 2021 to 2025, the study assesses trends in the number of small business entities, their contribution to gross domestic product, and their share of industrial output. The analysis reveals that the turnover tax regime and incentive frameworks within special economic zones have encouraged formalisation of economic activity, yet persistent challenges — most notably a substantial informal sector and constrained access to finance — continue to limit aggregate policy effectiveness. The article concludes with targeted recommendations to address these structural constraints.

**Keywords:** tax incentives, small business, entrepreneurship, turnover tax, special economic zone, tax policy, entrepreneur identification, tax burden.

### **Kirish**

O'zbekistonning so'nggi o'n yillikdagi iqtisodiy transformatsiyasi amalga oshirilgan islohotlarning qanchalik chuqur ekanini ko'rsatmoqda. 2017-yildan boshlab faollashtirilib, keyingi yillarda yanada kengaytirilgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati mamlakat iqtisodiyotining me'morini sezilarli darajada o'zgartirdi. Biroq siyosatning deklarativ maqsadlari bilan uning haqiqiy iqtisodiy ta'siri o'rtasidagi masofani aniqlash uchun empirik tahlil zarur. Aynan soliq imtiyozlari kichik biznes subyektlari uchun moddiy yukni kamaytiruvchi, tadbirkorlik faoliyatini rasmiy sektorga jalb qiluvchi asosiy vosita sifatida bu tahlilning markazida turadi.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, soliq imtiyozlari ikki asosiy mexanizm orqali ishlaydi: birinchisi, resurslarni samarali qayta taqsimlash, ikkinchisi, rasmiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatining nisbiy narxini pasaytirish. Shu bilan birga, imtiyozlarning umumiy samaradorligi ko'p jihatdan ularning qamrovi, muddati va biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi bilan qo'shilishi darajasiga bog'liq. OECD tadqiqotlari shuni tasdiqlaydi: soliq imtiyozlari kredit olish imkoniyati, bozorga kirish va huquqiy muhit bilan birga amalga oshirilganida ancha samaraliroq bo'ladi [1].

Ushbu maqolada 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda joriy etilgan soliq imtiyozlari tizimini tahlil qilib, kichik biznesning kengayishi va iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishdagi hissasi ko'rib chiqiladi. Unda savollarga bevosita javob olishimiz mumkin: qaysi soliq mexanizmlari kichik tadbirkorlik faoliyatini eng ko'p rag'batlantiradi? Mavjud imtiyoz tizimida qanday tizimiy kamchiliklar mavjud? Va ushbu kamchiliklarni qanday bartaraf etish mumkin?

### **Foydalanilgan adabiyotlar sharhi**

Soliq imtiyozlarining tadbirkorlikka ta'sirini o'rganuvchi xalqaro akademik adabiyot juda boy va ziddiyatli xulosalarga egadir. Djankov va boshqalar (2010) 85

mamlakatni qamrab olgan taqqosiy tadqiqotida soliq yukining pasayishi va yangi korxonalar tashkil topish tezligi o'rtasida statistik jihatdan muhim musbat bog'liqlikni aniqlagan bo'lsa-da, bu ta'sir kichik biznes uchun yirik korporatsiyalarga qaraganda ancha zaifligi ham qayd etilgan [2].

Germaniyaning kichik va o'rta biznes sohasini tahlil qilgan Heckemeyer va De Mooij (2017) tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, korporativ soliq imtiyozlari qisqa muddatli investitsiya qarorlariga ta'sir qilsa-da, tadbirkor identifikatsiyasi va xavf olishga moyillik, bu qarorlarning asosiy harakalantirgich kuchlari sifatida qoladi [3].

O'tish iqtisodiyotlari kontekstida Ham va boshqalar (2010) Markaziy Osiyo davlatlari uchun alohida tahlil o'tkazib, soliq ma'muriyatining soddalashtirilishi va norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tish orasidagi ijobiy korrelyatsiyani isbotlagan. Ushbu tez-tez e'tibordan chetda qoladigan natija O'zbekiston kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki norasmiy iqtisodiyot hali ham YaIMning 30–35 foizini tashkil qilishi taxmin qilinmoqda [4].

O'zbekiston ilmiy adabiyotida Vahobov va Jo'rayev (2024) tomonidan yozilgan "Soliqlar va soliqqa tortish" monografiyasi bu sohaning fundamental manbai hisoblanadi. Muallif soliq imtiyozlarini tasniflab, ularning iqtisodiy asosini nazariy jihatdan ishlab chiqadi hamda O'zbekiston soliq kodeksi doirasidagi amaliy tatbiqini batafsil izohlaydi [5].

OECD ning 2023-yilda chop etgan "Kichik biznes va tadbirkorlik siyosati: O'zbekiston" hisobotida soliq siyosatining rasmiylashtiruvchi roli alohida ko'rib chiqilgan. Hisobotda soliq imtiyozlarining kumulyativ ta'siri ya'ni, bitta qoidaning emas, balki bir nechta parallel mexanizmlarning birgalikdagi samaradorligi alohida o'rganilgan va O'zbekistondagi aylanmadan olinadigan soliq tizimining nisbatan muvaffaqiyatli ekaniga ishora qilingan [6].

Jahon banki Kichik va o'rta biznes moliyalashtirish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilgan loyihasi (P173001) yuzasidan 2025-yilda chiqarilgan amalga oshirish va natijalar hisobotida ta'kidlanishicha, moliya vositalari bilan soliq imtiyozlarining bir vaqtda qo'llanilishi rivojlanish natijalari ko'rsatkichlarini sezilarli yaxshilaydi. Ayniqsa, kichik biznesning kredit bilan ta'minlanganlik darajasi 2022-yildan 2024-yilgacha 18 foizga oshganligi qayd etilgan [7].

Xalqaro valyuta jamg'armasining 2024-yilgi O'zbekiston bo'yicha mamlakat hisobotida ham tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar masalasi keng yoritilgan. Hisobotda real iqtisodiy o'sish va YaIM tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar ko'rsatilgan: 2022–2024-yillar davomida real YaIM o'sishi yiliga o'rtacha 6 foizdan oshganligini hisobga olsak, kichik biznesning ushbu o'sishda ishtirokini baholash o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi [8].

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasining rasmiy press-reviz ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni 2021–2025-yillar davomida sezilarli tebranishlarni boshdan kechirdi. Quyida keltirilgan 1-jadval ushbu dinamikani yaqqol ko'rsatib bermoqda.

**1- Jadval.****Kichik biznes subyektlari dinamikasi (2021–2025)<sup>1</sup>**

Yil	Jami korxonalar va tashkilotlar	Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari	Kichik biznes ulushi (%)
2021	540 098	476 750	473 705	87,7%
2022	581 046	516 274	512 637	88,2%
2023	490 356	426 270	422 586	86,2%
2024	469 409	405 978	402 209	85,7%
2025*	465 944	399 811	395 777	84,9%

\* 2025-yil 1-noyabr holatiga ko'ra.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlarining soni 2022-yilda eng yuqori nuqtaga (512 637 birlik) yetgan. 2023–2025-yillarda esa qisqarish tendensiyasi kuzatiladi, bu birinchi navbatda ro'yxatga olish metodologiyasidagi o'zgarishlar va bir qator faoliyatsiz korxonalarini registrdan chiqarish jarayoni bilan bog'liq. Biroq kichik biznesning umumiy korxonalar sonidagi ulushi barqaror ravishda 84–88 foiz atrofida qolib kelmoqda, bu esa iqtisodiy tuzilmadagi kichik formatli tadbirkorlikning markaziy o'rnini tasdiqlaydi.

2022-yildagi o'sishda O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 8-aprelda imzolangan PF-101-sonli Farmoni muhim rol o'ynadi. Ushbu farmon xususiy sektorni rivojlantirish uchun bir qator yangi imtiyoz va yordam mexanizmlarini joriy etdi. Keyinchalik 2022-yilning 12-iyulida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish kirituvchi qonun esa maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun investitsiya hajmiga qarab 3 yildan 10 yilgacha davom etuvchi foyda solig'idan ozodlik mexanizmini mustahkamladi.

**Soliq imtiyozlarining tuzilishi va qo'llanish doirasi**

O'zbekistondagi kichik biznes uchun soliq muhiti bir nechta bir-birini to'ldiruvchi rejimlardan iborat. Yillik aylanmasi 1 milliard so'mga qadar bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun aylanmadan olinadigan soliq tizimi asosiy imtiyozli mexanizm bo'lib, 0 foizdan 4 foizgacha bo'lgan stavka foyda solig'ining 15 foizlik stavkasiga nisbatan juda past. Soliq kodeksining 480-moddasi bo'yicha ushbu rejim

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz), press-reviz, 11.11.2025.

kichik biznesni korporativ majburiyatlar va murakkab hisob-kitob talablaridan ozod etib, boshqaruv xarajatlarini sezilarli darajada qisqartiradi.

2023-yil 1-yanvardan QQS stavkasining 15 foizdan 12 foizga tushirilishi esa umumiy soliq yukini yanada yengillashtirdi. Ayniqsa, aylanma solig'i to'lovchilaridan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarigacha keng qamrovli tizim kichik biznesning turli bosqichdagi ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Quyidagi 2-jadval ushbu tizimning asosiy elementlarini umumlashtiradi.

**2-Jadval.****O'zbekistonda kichik biznes uchun amal qiluvchi soliq rejimlari va imtiyozlar (2024-yil)<sup>2</sup>**

<b>Soliq rejimi</b>	<b>Soliq turi</b>	<b>Stavka/imtiyoz</b>	<b>Qo'llanilish doirasi</b>
Umumiy soliq rejimi	Foyda solig'i	15%	YaIM 1 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan barcha tashkilotlar
Aylanmadan olinadigan soliq rejimi	Aylanmadan olinadigan soliq	0–4%	Yillik aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan kichik biznes
Maxsus iqtisodiy zonalar (MEZ)	Foyda solig'i	0%	Investitsiya hajmiga qarab 3, 5 yoki 10 yil muddatga
Alohida hududlar (Farg'ona viloyati)	Foyda solig'i, JShODS, ijtimoiy soliq	1%	Soh tumani (Farg'ona viloyati va boshqa alohida mahallalar (2021-yildan)
Elektr sanoati korxonalarini	Foyda solig'i va mol-mulk solig'i	50% imtiyoz	2024-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha
O'z-o'zini band qilganlar	JShODS(ixtiyoriy)	0 (asosiy)	Yillik daromad 100 mln so'mgacha – soliqdan ozod

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish hamda ularga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Soliq sohasidagi islohotlar va rag'batlantirish mexanizmlari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda qanchalik samara berayotganini ko'rish uchun, so'nggi yillarda kichik biznesning

<sup>2</sup> : O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi; PwC Uzbekistan Tax Summaries 2024–2025; KPMG Tax Alert, December 2025.

YAIMdagi ulushi dinamikasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi 3-jadvalda ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyasi aks ettirilgan.

**3-Jadval****Kichik biznesning makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi<sup>3</sup>**

Yil	Kichik biznesning YaIM dagi ulushi (%)
2021	54,9%
2022	51,8%
2023	51,2%
2024	54,3%
2025 (yan-fev)	51,5%


3-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning YAIMdagi ulushi ma'lum darajada tebranishlar bilan barqaror yuqori salmoqni saqlab kelmoqda. Xususan, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 54,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi ikki yilda biroz pasayish kuzatilib, 2023-yil yakuniga ko'ra 51,2 foizga teng bo'lgan. Bu holat mamlakatda yirik sanoat va infratuzilmaviy loyihalarning jadal o'sishi bilan izohlanishi mumkin. Biroq, 2024-yilda kichik biznes subyektlariga berilgan soliq imtiyozlarining kengaytirilishi va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida soha ulushi qaytadan sezilarli o'sib, 54,3 foizni tashkil etgan. Bu esa soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi bevosita kichik tadbirkorlik subyektlarining faollashishiga va ularning rasmiy sektordagi ulushi kengayishiga xizmat qilayotganidan dalolat beradi. 2025-yilning dastlabki oylari (yanvar-fevral) ko'rsatkichi esa mavsumiylik omillarini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish tendensiyasi davom etayotganini tasdiqlaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat sanoat tarmoqlaridagi ishtiroki va ishlab chiqarish salohiyati soliq islohotlarining samaradorligini baholashda muhim indikator hisoblanadi. Quyidagi grafikda kichik biznes subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi hamda jami sanoatdagi ulushining ko'p yillik dinamikasi aks ettirilgan.

**1-Rasm****Kichik tadbirkorlik subektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi dinamikasi<sup>4</sup>**

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz), 2021–2025-yillar press-revizlari.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida. "Kichik tadbirkorlik subektlarining asosiy ko'rsatkichlari" (2021-2025)



Grafik ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jadal va uzluksiz o'sib borgan. Xususan, ishlab chiqarish hajmi 2021-yildagi 81,5 trln so'mdan 2025-yilga kelib qariyb 3 baravardan ziyodroqqa oshgan va 258,5 trln so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, sohaning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Agar 2021-yilda ushbu ulush 25,9 foizga teng bo'lgan bo'lsa, tizimli soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari qatnashida iqtisodiy samarasi o'laroq, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 33,4 foizgacha ko'tarilgan. Bu esa kichik biznesning milliy sanoat tarkibidagi mavqeyi sezilarli darajada mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tahlil bir qancha strukturaviy muammolarni ham ochib ko'rsatmoqda. Norasmiy iqtisodiyotning ulushi hali ham yuqoriligi kichik biznes rivojlanishini cheklab qo'ymoqda. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, soliq imtiyozlaridan faqat rasmiy tarzda faoliyat yurituvchi korxonalar to'la foydalana oladi, bu esa norasmiy sektordagi kichik tadbirkorlarni imtiyoz tizimidan chetda qoldiradi. Bundan tashqari, 2025-yildan ayrim imtiyozlarning jumladan, to'qimachilik eksportchilariga berilgan 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasi va eksportyorlar uchun daromad solig'i imtiyozlarining bekor qilinishi ham kichik biznesning ba'zi tarmoqlarida qo'shimcha moliyaviy yukni yuzaga keltirishi mumkin.

### **XULOSA**

Amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda joriy etilgan soliq imtiyozlari, xususan aylanma solig'i tizimi, maxsus iqtisodiy zonalaridagi imtiyozlar va raqamli soliq ma'muriyatiga o'tish, kichik biznesning rasmiy sektorga jalb bo'lishiga va YaIM dagi ulushini barqarorlashtirish sari sezilarli hissa qo'shdi. 51,5 foizlik YaIM ulushi bu ko'rsatkichlar kichik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi fundamental rolini tasdiqlovchi dalillardir.

Shu bilan birga maqola bir qancha muammolarni ham qayt etadi, birinchidan, soliq imtiyozlari tizimi tarmoqlar kesimida haddan tashqari parchalangan bo'lib, yaxlit va izchil siyosat konsepsiyasiga asoslanmagan holda, turli davrlarda alohida-alohida

qabul qilingan qarorlar yig'indisi sifatida shakllanganligi kuzatiladi. Ikkinchidan 2025-yildan bir qancha imtiyozlarning bekor qilinishi kichik biznesning ayrim segmentlari uchun kutilmagan moliyaviy stressni yuzaga keltirishi mumkin. Uchinchidan moliya vositalariga kreditlarga, kafolat fondlariga cheklangan kirish imtiyozlar ta'sirining t'liq ro'yobga chiqishiga to'siq bo'lib qolmoqda.

Ushbu muammolarga yechim sifatida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- soliq imtiyozlarini tarmoq va investitsiya samaradorligiga qarab tizimli ravishda baholab, maqsadli qayta yo'naltirishni ta'minlash;
- norasmiy sektordagi kichik tadbirkorlarni rasmiy imtiyoz tizimiga bosqichma-bosqich jalb qilish uchun soddalashtirish va axborot kampaniyalarini kengaytirish;
- hamda soliq siyosatini kredit olish imkoniyatlarini kengaytiruvchi moliyaviy vositalar bilan birgalikda ishlab chiqish.

Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari tizimi tadbirkorlik muhitida haqiqiy tizimli rag'batlantirgichga aylanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli Farmoni "Xususiy sektor rivojlanishi uchun biznes muhitini yaxshilash to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/5947782>
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-iyuldagi "Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun imtiyozlar). <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-220-sonli Farmoni "Energiyani tejash texnologiyalarini joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/6189043>
4. OECD. SME and Entrepreneurship Policy in Uzbekistan 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/978926490366-en>
5. Djankov, S., Ganser, T., McLiesh, C., Ramalho, R., & Shleifer, A. (2010). The Effect of Corporate Taxes on Investment and Entrepreneurship. *American Economic Journal: Macroeconomics*, 2(3), 31–64.
6. Heckemeyer, J.H., & De Mooij, R.A. (2017). Taxation and corporate debt: Are banks any different? *National Tax Journal*, 70(1), 53–76.
7. Ham, J.C., Svejnar, J., & Terrell, K. (2010). Unemployment and the Social Safety Net during Transitions to a Market Economy: Evidence from the Czech and Slovak Republics. *American Economic Review*, 88(5), 1117–1142.
8. Vahobov, A., & Jo'rayev, A. (2024). Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent: "Iqtisod-Moliya"
9. OECD. (2023). SME and Entrepreneurship Policy in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing.

10. World Bank. (2025). Uzbekistan: Tax Administration Reform Project (P173001), Implementation Status & Results Report. Washington, DC: World Bank Group.
11. International Monetary Fund (IMF). (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation – Staff Report. Washington, DC: IMF.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). YaIM bo'yicha press-reviz, yanvar–sentabr 2025. Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz>